AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Qudratov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruza Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abduraimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich	



FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH

Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon filiali "Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va
aniq fanlar" kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona vodiysida faoliyat yuritayotgan to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyati, ularning raqobatbardoshligi hamda tashqi bozorlardagi faolligi ilmiy asosda tahlil qilinib, model orqali baholangan. Tadqiqot davomida Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida joylashgan to'qimachilik hamda tikuv-trikotaj korxonalarining ishlab chiqarish hajmi, eksport faoliyati va unga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda o'rganilgan. Maqolada eksport salohiyatini belgilovchi asosiy omillar – ishlab chiqarish korxonalarining modernizatsiya darajasi, xomashyo bazasining mahalliyashtirilganligi, logistika infratuzilmasining rivojlanishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlov choralarining samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari Farg'ona vodiysi to'qimachilik korxonalarining eksport imkoniyatlarini yanada kengaytirish va xalqaro bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, eksport salohiyati, tikuv-trikotaj mahsulotlari, klaster, logistika, eksport geografyasi, xalqaro bozor, raqobatbardoshlik, eksport hajmi, MCRM.

Abstract. This article analyzes and evaluates the export potential of textile enterprises operating in the Fergana Valley, their competitiveness, and their activity in foreign markets through a model-based approach. During the study, the production volume and export activity of textile and garment-knitting enterprises located in the Fergana, Andijan, and Namangan regions, as well as the factors influencing them, were comprehensively examined. The article highlights the key determinants of export potential, including the modernization of production enterprises, localization of the raw material base, development of logistics infrastructure, and the effectiveness of state support measures. The research findings contribute to expanding the export capabilities of textile enterprises in the Fergana Valley and strengthening their positions in international markets.

Key words: textile industry, export potential, garment and knitwear products, cluster, logistics, export geography, international market, competitiveness, export volume, MCRM.

Аннотация. В данной статье на основе модели проанализирован и оценён экспортный потенциал текстильных предприятий Ферганской долины, их конкурентоспособность и активность на внешних рынках. В ходе исследования детально изучены объёмы производства и экспортная активность текстильных и швейно-трикотажных предприятий Ферганской, Андижанской и Наманганской областей, а также факторы, оказывающие на них влияние. В статье рассматриваются основные факторы, определяющие экспортный потенциал: уровень модернизации производственных предприятий, локализация сырьевой базы, развитие логистической инфраструктуры и эффективность мер государственной поддержки. Результаты исследования направлены на расширение экспортных возможностей текстильных предприятий Ферганской долины и укрепление их позиций на международном рынке.

Ключевые слова: текстильная промышленность, экспортный потенциал, швейно-трикотажные изделия, кластер, логистика, география экспорта, международный рынок, конкурентоспособность, объём экспорта, MCRM.

KIRISH

Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi hududlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, to'qimachilik sanoati ushbu mintaqalarda yetakchi tarmoqlardan biri sifatida ajralib turadi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyati bilan iqtisodiyotning raqobatbardosh sohalaridan biriga aylangan.



Mazkur viloyatlar — Namangan, Andijon va Fargʻona — mamlakat toʻqimachilik sanoatining asosiy markazlari hisoblanadi. Bu hududlarda yuzlab yirik, oʻrta hamda kichik toʻqimachilik korxonalari faoliyat yuritib, paxta tolasini qayta ishlashdan tortib, tayyor kiyim-kechak mahsulotlarini ishlab chiqarishgacha boʻlgan toʻliq texnologik zanjirni amalga oshirmoqda.

Toʻqimachilik tarmogʻining mintaqaviy rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, balki yangi ish oʻrinlari yaratish, eksport geografiyasini kengaytirish va hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Shu bois, Fargʻona vodiysi toʻqimachilik klasterlari faoliyati Oʻzbekiston sanoat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston toʻqimachilik sanoati mamlakat eksport salohiyatini oshirishda muhim oʻrin egallamoqda. Porter M. (1990) sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini innovatsiya va mehnat unumdorligi bilan bogʻlaydi. Krugman P. (1994) esa eksport salohiyatini tashqi bozorlarda raqobat ustunligini saqlash qobiliyati sifatida izohlaydi.

Oʻzbekiston olimlari ham ushbu yoʻnalishda tadqiqotlar olib bormoqda. Oqboyev A.R. (2025) toʻqimachilik korxonalarida xalqaro standartlarni joriy etishning eksportga ijobiy taʼsirini asoslagan. Qodirov X. (2025) esa eksport hajmining oʻsishi ishlab chiqarish samaradorligi va texnologik yangilanish bilan bogʻliqligini aniqlagan.

Rasmiy manbalarga koʻra, Fargʻona vodiysi mamlakat toʻqimachilik mahsulotlarining qariyb 35–40 foizini ishlab chiqaradi (Statistika agentligi, 2024). “Oʻztoʻqimachilik sanoat” uyushmasi maʼlumotlariga koʻra, asosiy eksport yoʻnalishlari Rossiya, Turkiya, Polsha va Janubiy Koreya hisoblanadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, Fargʻona vodiysi korxonalarining eksport salohiyatini yanada oshirish uchun texnologik modernizatsiya, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va eksportni diversifikatsiya qilish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Oʻzbekistonda toʻqimachilik hamda tikuv-trikotaj mahsulotlari eksporti dinamikasini chuqur tahlil qilish va uni rivojlantirish omillarini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar qoʻllanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqich va uslublarni oʻz ichiga oladi:

1. Statistika tahlil usuli – Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi hamda “Oʻztoʻqimachilik sanoat” uyushmasining 2020–2024-yillar davriga oid rasmiy maʼlumotlari asosida eksport hajmi, geografik yoʻnalishlari va mahsulot tarkibidagi oʻzgarish tendensiyalari tahlil qilindi.

2. Dinamik qatorlar tahlili – toʻqimachilik mahsulotlari eksportining yillik oʻsish surʼatlari, oʻzgarish darajasi va barqarorlik koʻrsatkichlari dinamik qatorlar asosida baholandi. Ushbu usul orqali eksport salohiyatining vaqt boʻyicha rivojlanish yoʻnalishlari aniqlashtirildi.

3. Qiyosiy tahlil usuli – Fargʻona, Andijon va Namangan viloyatlarining eksport salohiyati mintaqadagi boshqa hududlar, xususan, Toshkent, Buxoro va Samarqand viloyatlari koʻrsatkichlari bilan solishtirildi. Bu orqali mintaqaviy farqlar hamda raqobat ustunliklari aniqlanib, ularning tahliliy xulosalari ishlab chiqildi.

4. SWOT-tahlil – toʻqimachilik eksportining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlari hamda ehtimoliy xavf-xatarlari tahlil qilinib, ularni bartaraf etish boʻyicha strategik yoʻnalishlar belgilandi.

5. Ilmiy umumlashtirish va induktiv yondashuv – mavjud nazariy konsepsiyalar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tajriba va amaliy natijalar umumlashtirilib, Oʻzbekiston toʻqimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish boʻyicha ilmiy asoslangan xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yil yakunlariga koʻra, Andijon, Namangan va Fargʻona viloyatlari Oʻzbekiston toʻqimachilik sanoatining ishlab chiqarish hajmi boʻyicha yetakchi hududlari sifatida ajralib turmoqda. Statistika maʼlumotlarga asosan aytilish mumkinki, Andijon viloyati 20,4 trln soʻmlik ishlab chiqarish hajmiga erishib, mamlakat boʻyicha eng yuqori natijani qayd etgan. Bu koʻrsatkich umumiy respublika ishlab chiqarish hajmining 16,5 foizini tashkil etadi.

Fargʻona viloyati 15,1 trln soʻm hajm bilan ikkinchi oʻrinda turib, umumiy ishlab chiqarishning 12,2 foizini, Namangan viloyati esa 11,1 trln soʻm hajm bilan 9,0 foizini taʼminlagan. Ushbu natijalar shuni koʻrsatadiki, Fargʻona vodiysi viloyatlari Oʻzbekiston toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishining 37,7 foizini qamrab olmoqda.

Bu mintaqalarda mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, xomashyo bazasi (asosan paxta xomashyosi), malakali mehnat resurslari hamda klaster yondashuvining samarali joriy etilishi toʻqimachilik sanoatining mintaqaviy




konsentratsiyasini ta'minlayotgan muhim omillardandir.

2020–2024-yillar davomida Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport hajmlarining dinamik tahlili barcha viloyatlarda barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda.

Xususan, Andijon viloyatida ishlab chiqarish hajmi 2020-yildagi 5 477,3 mlrd so'mdan 2024-yilda 20 372,3 mlrd so'mga yetgan bo'lib, bu 3,7 barobar o'sishni anglatadi. Ushbu natija Andijon viloyatining to'qimachilik tarmog'idagi yetakchi o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur davr mobaynida Namangan va Farg'ona viloyatlarida ham o'sish sur'atlari ijobiy bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, eksport assortimentining diversifikatsiyasi hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish natijasida eksport salohiyati sezilarli darajada oshgan.

Umuman olganda, 2020–2024-yillar davomida Farg'ona vodiysi viloyatlarining to'qimachilik sanoatida kuzatilgan barqaror o'sish jarayoni davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlov choralari, investitsiya loyihalarining faollashuvi va klaster tizimining samarali joriy etilishi bilan chambarchas bog'liqdir (1-rasm).



1-rasm. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi (2020–2024-yillar)¹

Farg'ona viloyatida ishlab chiqarish hajmi 2020-yildagi 6 302,1 mlrd so'mdan 2024-yilda 15 057,4 mlrd so'mga yetgan bo'lib, 2,4 barobar o'sish qayd etilgan. Ushbu natija barqaror, ammo nisbatan sokin o'sish sur'atlarini ifodalaydi. Namangan viloyatida esa 2020-yilda 3 954,9 mlrd so'm bo'lgan ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 11 078,0 mlrd so'mga yetib, 2,8 barobarga yaqin o'sish kuzatilgan.

Olingan tahliliy natijalar shuni ko'rsatadiki, barcha viloyatlarda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi izchil o'sib borgan. Ayniqsa, Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarishining kengayishi eng yuqori sur'atlarda kechgan. Namangan va Farg'ona viloyatlarida ham ijobiy o'sish dinamikasi kuzatilgan bo'lsa-da, o'sish darajalari biroz farqlanadi. Bu holat hududlar o'rtasidagi ishlab chiqarish salohiyatining diversifikatsiyalashganligini ko'rsatib, kelgusida raqobatbardoshlikni mustahkamlash uchun investitsiya va infratuzilma loyihalarini yanada takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Farg'ona vodiysi to'qimachilik mahsulotlari eksporti tahliliga murojaat qilganda, 2024-yil yakunlariga ko'ra, Andijon viloyati 492,1 mln AQSh dollari miqdoridagi eksport hajmi bilan mintaqaga yetakchi hisoblanadi. Namangan va Farg'ona viloyatlarida esa eksport hajmi mos ravishda 301,1 mln va 284,4 mln AQSh dollarini tashkil etgan.


2023-yil bilan solishtirilganda, Andijon viloyatida eksport hajmi 1,2 foizga kamaygan, Namangan viloyatida esa 2,5 foizlik pasayish kuzatilgan. Shu bilan birga, Farg'ona viloyatida 2,4 foizlik o'sish qayd etilib, bu hududda eksport barqarorlashuvi va tiklanish tendensiyasi kuzatilgan.

2020–2022-yillar davomida Andijon viloyati eksport hajmini muntazam oshirib, 2022-yilda 590,5 mln AQSh dollari ko'rsatkichiga yetgan. Keyingi yillarda esa eksport hajmida biroz pasayish kuzatilgan bo'lib, 2024-yilda 492,1 mln AQSh dollari darajasida qayd etilgan.

Namangan viloyatida ham shunga o'xshash holat kuzatilgan: 2022-yilda 390,3 mln AQSh dollari miqdoridagi maksimal ko'rsatkichga erishilgan, ammo 2023–2024-yillarda eksport hajmi biroz qisqargan. Farg'ona viloyatida esa 2020–2022-yillarda ijobiy o'sish dinamikasi kuzatilgan, 2023-yilda esa eksport hajmi qisqargan bo'lsa-da, 2024-yilda nisbiy barqarorlik qayta tiklangan.


Umuman olganda, 2020–2024-yillar davomida Farg'ona vodiysi viloyatlarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport hajmlarining ijobiy dinamikasi kuzatilib, bu jarayon mintaqaviy sanoat salohiyatining ortishi, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi hamda klaster tizimi samaradorligining oshib borayotganligini tasdiqlaydi (2-rasm).

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



2-rasm. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida to'qimachilik mahsulotlarining eksport faoliyati tahlili (2020–2024-yillar)²

2024-yil yakunlariga ko'ra, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada ortgan. Shu bilan birga, ushbu ishlab chiqarish hajmidan eksportga yo'naltirilgan ulush viloyatlar kesimida ma'lum farqlar bilan ajralib turadi (3-rasm).



3-rasm. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidan eksportga yo'naltirilgan ulushning taqsimoti (2024-yil, foiz hisobida)³

Mazkur holat hududlar o'rtasida ishlab chiqarish salohiyati, logistika imkoniyatlari va eksport infratuzilmasining rivojlanish darajasi bilan izohlanadi. Umuman olganda, barcha viloyatlar eksport ulushini oshirish yo'lida barqaror ijobiy dinamikani namoyon etmoqda.

Namangan viloyatida ishlab chiqarish hajmi 11 078,0 mlrd so'mni tashkil etib, ushbu mahsulotlarning 301,1 mln AQSh dollari miqdoridagi qismi eksport qilingan. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish hajmining 32,6 foizini tashkil etadi va Namangan viloyatini eng yuqori eksport ulushiga ega hudud sifatida ajratib ko'rsatadi.

Andijon viloyatida ishlab chiqarish hajmi 20 372,3 mlrd so'mga yetgan bo'lib, shundan 492,1 mln AQSh dollari miqdoridagi mahsulot eksportga yo'naltirilgan. Bu esa umumiy ishlab chiqarishning 29,0 foizini tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich yuqori darajada bo'lsa-da, Namangan viloyatining eksport ulushidan biroz past.

Farg'ona viloyatida esa ishlab chiqarish hajmi 15 057,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 284,4 mln AQSh dollari miqdoridagi mahsulot eksportga chiqarilgan. Bu ko'rsatkich 22,7 foizni tashkil etadi. Ushbu natija Farg'ona viloyatida ishlab chiqarish hajmi yirik bo'lishiga qaramay, eksport ulushini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Farg'ona vodiysi viloyatlarida ishlab chiqarish va eksport hajmlarining ijobiy o'sishi kuzatilmoqda. Ammo hududlar o'rtasidagi eksport ulushi farqlari investitsiya muhitining darajasi, logistika infratuzilmasi, hamda korxonalar raqobatbardoshligi bilan izohlanadi. Shu sababli, mintaqada eksport salohiyatini yanada kuchaytirish uchun maqsadli boshqaruv qarorlari, strategik investitsiyalar va davlat ko'magining tizimli yo'naltirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududlardagi to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini aniq va xolis baholash, ularning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlash, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralari maqsadli yo'naltirish — sohani rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Shu maqsadda integrallashgan baholashga asoslangan ko'p mezonli reyting modeli — Multi-Criterial

² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Rating Model (MCRM)⁴ usulidan foydalanish tavsiya etiladi. MCRM usuli to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini ko'p omilli tahlil asosida baholash imkonini beradi.

Eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar — moliyaviy ko'rsatkichlar, ishlab chiqarish hajmlari, xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasi, bozor diversifikatsiyasi va inson kapitali (kadrlar salohiyati) — bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, turli o'lchov birliklariga ega. MCRM usuli ushbu ko'rsatkichlarni agregatsiya qilish orqali ularni yagona integral reyting ko'rsatkichi shaklida ifodalash imkonini yaratadi.

Shuningdek, Multi-Criterial Rating Model (MCRM) ekspert baholash va statistik ma'lumotlarni integratsiyalash imkonini beradi. Bu yondashuv nafaqat modelning raqamli aniqligini, balki amaliyotchi mutaxassislar tajribasiga asoslangan real iqtisodiy holatni ham aks ettirish imkonini ta'minlaydi.

MCRM usuli hududlardagi korxonalarni eksport salohiyatiga ko'ra segmentlash, ularni darajalar bo'yicha tasniflash, klasterlashtirish hamda maqsadli davlat siyosatini shakllantirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Bu orqali har bir toifadagi korxona uchun mos strategiyalar, resurs taqsimoti va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur modelning yana bir muhim jihati shundaki, u dinamik tahlil va monitoring olib borish imkonini beradi. Yillar kesimida reyting ko'rsatkichlarining o'zgarishini tahlil qilish orqali ichki va tashqi omillarning ta'sir darajasini baholash hamda korrekktiv iqtisodiy choralarni belgilash mumkin bo'ladi.

MCRM metodologiyasini amalga oshirish bosqichlari

1-bosqich. Indikatorlar tizimini shakllantirish va guruhlash.

Hududlardagi to'qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini samarali baholash uchun ushbu faoliyatga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar kompleks tarzda hisobga olinadi. MCRM modelida indikatorlarni tanlash va ularni maqsadga muvofiq guruhlash — metodologiyaning eng muhim va boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.

Bu bosqichda indikatorlar ishlab chiqarish samaradorligi, eksport raqobatbardoshligi, texnologiya va innovatsion daraja, hamda xalqaro standartlarga muvofiqlik kabi strategik mezonlar asosida shakllantiriladi.

Indikatorlarni tanlash jarayonida quyidagi ilmiy mezonlarga amal qilinadi: aktuallik, o'lchanuvchanlik, taqqoslanish imkoniyati, ta'sir darajasi, axborot mavjudligi, shuningdek indikatorlarning tizimliliigi va funktsional guruhlanishi.

Tanlangan indikatorlar ushbu belgilarga ko'ra asosiy bloklar bo'yicha tizimlashtirilib, tahlil qilinadi (1-jadval).

1-jadval. MCRM modeli doirasida indikatorlar tizimini shakllantirish va ularni guruhlash⁵

№	Blok nomi	Ifodalovchi ko'rsatkichlar	Ahamiyati
	Ishlab chiqarish salohiyati	– To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'm); – Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi.	Eksportga chiqariladigan mahsulotlarning fizik va iqtisodiy bazasini ifodalaydi hamda ishlab chiqarish quvvatlari va resurslardan foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi.
	Eksport faoliyatining ko'lami	– Eksport hajmi (mln AQSh dollari); – Umumiy eksportda to'qimachilik tarmog'ining ulushi (%).	intaqaning tashqi bozorlardagi pozitsiyasini va eksport hajmining iqtisodiy salohiyatini aniqlaydi.
	Eksport tarkibining diversifikatsiya darajasi	– Eksport amalga oshirilgan davlatlar soni; – Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI).	Tashqi bozorlarga chiqish geografiyasi va eksport faoliyatining barqarorlik darajasini ifodalaydi.
	Innovatsion va texnologik salohiyat	– Yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi; – Texnologik mahsulotlar eksportidagi ulushi.	Innovatsion rivojlanish, texnologik yangilanish va raqobat ustunligi darajasini ko'rsatadi.
	Sifat va standartlashtirish darajasi	– Xalqaro sertifikatlarga ega korxonalar soni; – Ekologik standartlarni joriy qilgan korxonalar soni; – Xalqaro standartlarga muvofiqlik uchun ajratilgan moliyaviy yordam (mln so'm).	Korxonalarning xalqaro bozor talablariga javob berish salohiyatini, mahsulot sifati va ekologik barqarorlik darajasini baholaydi.
	Qo'shilgan qiymat darajasi	(%)– Eksportdagi qo'shilgan qiymat ulushi (%).	Mahsulotlarning qayta ishlanish darajasi, daromad samaradorligi va eksport rentabelligini aks ettiradi.

4 https://en.wikipedia.org/wiki/Multiple_criteria_decision_analysis

5 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Mazkur indikatorlar eksport salohiyatining turli jihatlarini qamrab olib, ularning o'zaro bog'liqligi eksport jarayonlarini boshqarishda moslashuvchan va samarali strategik qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Har bir indikatorning tanlanishi tadqiqot ob'ekti va maqsadiga muvofiq ravishda asoslangan bo'lib, ular orasidagi uyg'unlik tahlilning ishonchligini oshiradi.

Indikatorlarni guruhlash baholash jarayonida kompleks yondashuvni ta'minlaydi, bu esa keyingi bosqichlarda ularni chuqur tahlil qilish va integral baholash ko'rsatkichlarini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, bu yondashuv mintaqaviy darajada eksport siyosatini ilmiy asoslash hamda korxonalar faoliyatini tizimli rivojlantirish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining to'qimachilik sanoati eksport salohiyatini baholash maqsadida ishonchli manbalar asos sifatida tanlab olindi. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, hamda Texnik jihatdan tartibga solish bo'yicha mas'ul agentliklarning 2020–2024-yillar uchun rasmiy axborotlari asos qilib olingan (2-jadval).

2-jadval. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida to'qimachilik sanoati eksport salohiyatining kompleks ko'rsatkichlar asosida baholanishi (2024-yil yakuni bo'yicha)⁶

No	Ko'rsatkichlar nomi	Andijon	Namangan	Farg'ona
Ishlab chiqarish darajasi				
1.	To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'm)	20372,3	11078	15057,4
2.	Sanoat ishlab chiqarishida to'qimachilikning ulushi (foizda)	22,5	37,7	31,3
3.	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari hajmi (mlrd.so'm)	346,1	353,7	363,3
Eksport raqobatbardoshligi				
1.	Eksport hajmi (mln.dollar)	492,1	301,1	284,4
2.	Umumiy eksportda to'qimachilikning ulushi (foizda)	41,3	50,6	34,4
3.	To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksport qilingan davlatlar soni (dona)	26	31	45
4.	Eksport diversifikatsiyasi (HHI)	4153,2	2301,9	4642,7
5.	Eksportda qo'shilgan qiymat darajasi (foizda)	56,1	78,9	28,3
Texnologiya va innovatsiya darajasi				
1.	Yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi (foizda)	20-24	10-15	8-12
2.	Yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti ulushi (foizda)	6-8	3-5	2-4%
Xalqaro standartlarni joriy qilish darajasi				
1.	Xalqaro sertifikatlariga ega tadbirkorlik subyektlari soni (dona)	168	200	120
2.	Ekologik standartlarni joriy qilgan tadbirkorlik subyektlari soni (dona)	48	62	44
3.	Xalqaro standartlash va sertifikatlashtirish uchun ko'rsatilgan moliyaviy yordam (mln.so'm)	973,6	2650,1	3034,9

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar natijasida Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida to'qimachilik sanoatining ishlab chiqarish va eksport faoliyati bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Farg'ona vodiysi viloyatlarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yuqori bo'lishiga qaramay, mahsulotlarning eksportga yo'naltirilish darajasi hududlar kesimida farqlanadi. Namangan viloyati eksportga

⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



mo'ljallangan ishlab chiqarishda yetakchilik qilmoqda, Andijon viloyati ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ustunlikni saqlab turgan bo'lsa-da, eksport ulushi nisbatan pastroq, Farg'ona viloyati esa ishlab chiqarish salohiyatiga nisbatan eksport ulushini oshirish imkoniyatlariga ega. Ushbu tafovutlar, asosan, mahsulotlarning xalqaro talab va sertifikatlash standartlariga muvofiqligi, logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi hamda tashqi bozorlarga integratsiya jarayonlari bilan izohlanadi. Shu bois, eksport salohiyatini yanada oshirish maqsadida maqsadli davlat dasturlarini kengaytirish va xususiy sektor diversifikatsiya strategiyalarini joriy etish zarur.

Yuqori ishlab chiqarish hajmlari qayd etilgan hududlarda iqtisodiy va institutsional afzalliklar mavjud bo'lib, ular to'qimachilik sanoatining barqaror rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Mintaqalarda faoliyat yuritayotgan to'qimachilik klasterlari xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan to'liq ishlab chiqarish zanjirining ichki hudud doirasida shakllanishiga imkon bermoqda. Ishchi kuchining ko'pligi va mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari tarmoqning jadal rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Transport va logistika infratuzilmasining rivojlanganligi ichki hamda tashqi bozorlarga samarali integratsiyani ta'minlamoqda. Xorijiy va mahalliy investitsiyalar jalb etilishi esa korxonalarning texnologik yangilanishi, mahsulot sifati va raqobatbardoshlik darajasining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Ushbu holatlar to'qimachilik sanoatini hududiy rivojlantirishda davlat siyosatining strategik rolini kuchaytirish, maqsadli dasturlarni yanada takomillashtirish, mintaqaviy eksport salohiyatini oshirish, xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish tizimini kengaytirish hamda logistika va sertifikatlash infratuzilmasini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Natijada, ushbu chora-tadbirlar O'zbekiston to'qimachilik sanoatini jahon bozorida raqobatbardosh va barqaror milliy brend darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Oqboyev A. R. "Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etishning metodologik asoslarini takomillashtirish (Farg'ona vodiysidagi to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari misolida)" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. – Toshkent, 2024–2025-yillar.
3. Kodirov Kh. Analysis of Export Indicators and Development Trends of Textile Industry Enterprises of the Republic of Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, Volume 06, Issue 04, October 2025, ISSN 2660-454X, pp. 1591–1597.
4. Wikipedia. Feature Scaling. https://en.wikipedia.org/wiki/Feature_scaling (murojaat sanasi: 2025-yil 10-oktabr).
5. Qodirov H. T. "O'zbekistonda to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksporti dinamikasi va uni rivojlantirish ko'rsatkichlari tahlili." Science and Education in Agriculture, № 9, Volume 9, Issue 9, September 2025, b. 176–181.
6. Nardo M., Saisana M., Saltelli A., Tarantola S., Hoffman A., Giovannini E. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. – Paris: OECD Publishing, 2008. – 158 p. DOI: <https://doi.org/10.1787/9789264043466-en>.
7. Wikipedia. Delphi Method. https://en.wikipedia.org/wiki/Delphi_method (murojaat sanasi: 2025-yil 12-oktabr).
8. Azbyka. Protsess analiticheskoy ierarhii. <https://azbyka.com.ua/uz/protsess-analiticheskoy-ierarhii> (murojaat sanasi: 2025-yil 11-oktabr).
9. ScienceDirect. Entropy Method. <https://www.sciencedirect.com/topics/engineering/entropy-method> (murojaat sanasi: 2025-yil 15-oktabr).
10. Corporate Finance Institute. Equal-Weighted Index. <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/equities/equal-weighted-index/> (murojaat sanasi: 2025-yil 16-oktabr).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
